

BIOLOGIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA YO`NALTIRILGAN INTERAKTIV METODLAR VA O`YINLAR

Kaxorova Karomatxon Sovronbayevna

*Ixtisoslashtirilgan ta`lim muassasalari agentligi tizimidagi
Namangan viloyati Uchqo`rg'on tuman ixtisoslashtirilgan maktabi
biologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada turli interaktiv metodlar va o`yinlarning biologiya darslarida qo`llanishishi misollar ko`rinishida tasvirlanadi.

Kalit so`zlar: Interfaol, venn diagammasi, rasmlı izoh, BBB, SWOT, Sinkveyn, quvnoq kubikchalar, charxpaak

Maktablarda uzoq vaqtgacha qo`llanilib kelingan an`anaviy ta`limda o`quvchi faqatgina tayyor bilimlarni tinglab, o`zi mustaqbil fiklab, tashbbus ko`rsatib yoki mavzuga ijodiy yondashib izlanish qobiliyati yaxshi rivojlantish samaradorligi nisbatan kam sezilgan. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi O`zbekiston yoshlariga va o`qituvchilarining faoliyatiga ijobiy ta`sirini ko`rsatayotgan turli interfaol metodlar va o`yinlarni biologiya dasrlarida qo`llashning natijasi ancha yuqoridir.

Interfaol ta`limning mohiyati –o`quvchilarining bir-birlaridan o`rganishlariga yo`naltirilgan. Bunda oqituvchi o`zi o`qitayotgan o`quvchilarining ro`hiyatidan va mavzu mohiyatidan kelb chiqqan holda darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyardan bir nehtasini qo`llagan holda o`quvchining faol harakatda bo`lishini ta`minlashi kerak. Bugungi kunda ta`limda qo`llanilayotgan “Aqliy hujum”, “Insert”, “Venn diogramma”, “BBB”, “Klaster”., “Arra”, “Moychechak”, “Tushunchalar tahlili”, SWOT”, “Zinama-zina”, “Svetafor” va shu kabi interfaol uslublar biologiya darslarida qo`llanilganda natijaviyligi tasdiqlangan. Quyida ushbu uslublardan biologiya darslarida qo`llanilishi mumkin bo`lagn mavzular misolida keltildi.

“Svetafor” – bu uslubda o`quvchilarida svetafor ranglarini o`zida aks etgan kartochkachalar bo`ladi. O`qituvchi yoki guruhlar sardorlari mavzuga doir qisqa fiklarni aytganda agarda o`quvchi bu fikrni ilmiy asoslangan to`g`ri deb hisoblasayashil kartochkani, noto`g`ri deb bilsa –qizil kartochkani, tushunmasa –sariq kartochkani ko`taradi. Bu uslubda o`tilayotgan mavzu o`quvchilar tayanch tushunchalar qanchalik mustahkamlanganligi va ularning diqqatini yig`ishga yordam berdi.

“Quvnoq kubiklar”-takrorlash darslarida o`qituvchi 3-4 ta kubiklarning tomonlariga biologik atama yoki sonlarni joylashtirib, xohlagan o`quvchiga otadi , kubikni ilib olgan o`quvchi o`ziga ko`ringan birinchi so`zni oqib, uinga izoh beradi.

Bu uslubning samaradorligi-o`quvchilarini hushlikka da`vat etish bilan birga xotira mustahkamligi oshiriladi.

“Assiment texnikasi” –ushbu texnologiyani mavzuni mustahkamlshda yoki uyga vazifa berishda qo`llansa bo`adi. Bunda o`quvchilar daftsriga 4katakli jadva

chizib oladi. Tarqatma materiallar yoki o`qituvchi bergen m`lumotlar yuzasidan jadvalning tegishli qismlarida tetslarjavobini, biologik obe`ktlar sim ptomlarini, muammoli vaziyat vaamaliy ko`nikmalarni to`ldiradi.

“BBB”- bilardim, bilib oldim, bilmoqchiman. Ko`pchilikka ma`lum mazkur uslubni biologiya darslarida qo`llash qulay va samaralidir. Chunki hammaga ma`lunmki, biologiya – hayot haqidagi fan va har bir o`quvchi bilogiya fani ob`etklari haqida ma`lum darajada tasavvurlarga ega. Bu uslubda mavzuni mustahkamlash uchun qo`llanganda o`quvchi mavzu haqida bilganlari , darsdan olgan ma`lumotlari, va bilishni istaganlari haqida jadval ko`rinishida bayon etadi.

“Rasmga izoh(Tushunchalar tahlili”)- bunda o`quvchilarga tushunarli bo`lishi uchun darslikda berilgan ramslar orqali jadval tuzilib, o`quvchi har bir rasmga izoh yozadi. Bu jarayonda o`quvchining yozma izohlaridan ko`ra o g`zaki bayon etgan fikri mukammalroq va muhokamalarda mustahkamlangan bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda pedagogikada qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublar va metodlarning barchasi o`quvchining mustaqil izlanishlari, mustaqqil fikrlashi,o`tilgan va o`zlashtirilgan bilimlarni eslab qolish va umumlashtirib hayotda qo`llay olishga yo`naltirilgan bo`lib ,bugungi kun pedagoglari bularning baridan xabardor bo`lishi va o`z ish faoliyatida keng qo`llay ilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Biologiya o`qitish metodikasi. T-2008
2. Ta`lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. Ishmuhammedov ...T-2016